ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To‘xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi:
milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O‘ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 97

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma’no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe’llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
«Devonu lug‘ati-t-turk» asaridagi she‘riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O‘G‘LI
Jadid dramaturgiyasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR’AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o‘zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA’LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog‘lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

INGLIZ TILIDA HOLAT FE'LLARINING METAFORIK KENGAYISHI

Abdumuminova Dilnoza Xomit qizi,
Navoiy davlat universiteti
ingliz tilshunosligi kafedrasi assistent o'qituvchisi

Hozirgi globallashuv davrida tilshunoslikda inson tafakkuri va til o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, dolzarblik ahamiyati oshib borayotgan kognitiv – til birliklari insonning konseptual dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etilib kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan hissiy qabul qilish holat fe'llari alohida ahamiyatga ega desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur ilmiy tadqiqotning dolzarbligi bugungi madaniyatlararo muloqot jarayonida til birliklarining nafaqat lug'aviy, balki kognitiv va konseptual mazmunini chuqur o'rganish zarurati bilan belgilanibgina qolmay, xususan, ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishini tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri ekanligi atroflicha ochib berildi. Bunday fe'llar dastlab sezgi organlari orqali qabul qilinadigan jarayonlarni ifodalasa-da, til taraqqiyoti davomida ular abstrakt tushunchalar, hissiy kechinmalar, aqliy faoiyat va ijtimoiy munosabatlarni ifodalash vazifasini ham bajara boshlaganini misollar va nazariy tadqiqotlar orqali isbotlandi. O'z o'rnida aytish joizki, mavzuni o'rganishning ahamiyati hissiy qabul qilish fe'llarining metaforik kengayishi insonning dunyoni idrok etish jarayonini qanday qilib til birliklari orqali konseptuallashtirilishi ham o'rganib chiqildi. Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan qaralganda, metafora faqat badiiy tasvir vositasi emas, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli holat fe'llari orqali shakllangan metaforik modellarning tahlili inson ongida bilim, tajriba va hissiyotlarning qanday tartibga solinishini tushunishga xizmat qiladi.[1]

Bundan tashqari, ingliz tilidagi hissiy qabul qilish fe'llarining metaforik kengayishini tadqiq etish til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi desak yangilishmaymiz. Har bir xalqning dunyoni idrok etish usuli uning tilida o'z aksini topadi. Shu bois, ushbu fe'llarning metaforik qo'llanishlarini o'rganish orqali biz ingliz tili sohiblarining konseptual

dunyoqarashlari, madaniy qadriyatlari va kommunikativ strategiyalari haqida ham muhim ilmiy xulosalarga ega bo'lishimiz mumkin.

Shuningdek, mazkur tadqiqot natijalari tarjimashunoslik, lingvosemantika va xorijiy tillarni o'qitish metodikasi uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Chunki metaforik ma'noda qo'llangan holat fe'llarini to'g'ri talqin qilish va tarjima qilish til o'rganuvchilar hamda tarjimonlar uchun muhim vazifalardan biridir. Ushbu birliklarning semantik va kognitiv xususiyatlarini aniqlash tarjima jarayonida ma'no yo'qotilishining oldini olishga hamda madaniyatlararo kommunikatsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishini o'rganish kognitiv lingvistika, semantika, psixolingvistika va lingvomadaniyatshunoslikning kesishgan nuqtasida joylashgan dolzarb ilmiy muammo bo'libgina qolmay, til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa mavzuning nazariy va amaliy jihatdan yuqori ilmiy ahamiyatga ega ekanligini yaqqol aks ettiradi.

Holat fe'llari insonning sezish, his qilish va idrok etish faoliyatini ifodalaydi. Ingliz tilida bunday fe'llarga see, hear, smell, taste, feel kabi birliklar misol bo'la oladi. Ushbu fe'llar dastlab fizik - sezgi faoliyatini anglatsa-da, vaqt o'tishi bilan abstrakt va metaforik ma'nolarni ham ifodalay boshlagan. Masalan, «*I see your point*», «*After the explanation, everyone saw the logic behind the decision*» gaplarida see fe'li «ko'rmoq» emas, balki «tushunmoq» ma'nosida qo'llangan. Yana misol tariqasida «*She felt the tension in the room*», «*I feel that we are moving in the right direction*» jumlalarida «feel» nafaqat jismoniy sezgi, balki emotsional holatni ham ifodalaydi. Bu holat fe'llarining semantik kengayishini va ularning kognitiv asoslarini tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tilshunoslikda holat fe'llari insonning ichki holati, hissiyoti yoki tafakkuriy faoliyatini ifodalovchi fe'llar sifatida talqin qilinadi. Hissiy holat fe'llari esa sezgi organlari orqali qabul qilinadigan holatlarni ifodalay-

[1] Zoltán Kövecses. Metaphor: A Practical Introduction. Oxford University Press, 2010.

di.

Asosiy holat fe'llariga misol tariqasida see (ko'rmoq), hear(eshitmoq), feel (his qilmoq), smell (hid sezmoq), taste (ta'm bilmoq) fe'llarini o'rganib chiqsak bo'ladi. Bu fe'llarning asosiy xususiyati shundaki, ular harakatdan ko'ra, ko'p hollarda holatni ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli ular ko'pincha hozirgi davomli zamon shakllarida deyarli qo'llanilmaydi. Masalan, «*I hear music*» iborasidan foydalanish amalda to'g'ri hisoblanadi, ammo «*I am hearing music*» iborasini nutqda ishlatish tavsiya etilmaydi.[1] Holat fe'llari insonning tashqi olamni idrok etish jarayonini aks ettiradi va tilning konseptual tizimida muhim o'rin egallaydi.

Kognitiv lingvistikada metafora tushunchasiga oddiy badiiy vosita emas, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Mashhur lingvistlar George Lakoff va Mark Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, inson tanish- notanish abstrakt tushunchalarni konkret tajriba orqali anglashga harakat qiladi. Holat fe'llarining aynan shu jarayonda faol ishtirokini ko'rish mumkin[2]. Misol tariqasida «See» holat fe'lining metaforik kengayishini talqin qilganimizda, «See» fe'li fizik ko'rishni anglatsa-da, ingliz tilida ko'pincha «tushunmoq» ma'nosini talqin etaganda «ko'rish» ma'nosi bilan konseptual jihatdan bog'langanligini «*I see what you mean*», «*It took me a while to see the difference*» gaplaridan ko'rishimiz mumkin. Undan tashqari «anglamoq» ma'nosini ifodalash uchun «*Now I can see the truth*», «*Suddenly, she saw the solution*» iboralarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Endilikda «Feel» holat fe'lining metaforik qo'llanilishiga e'tibor qaratsak. «Feel» fe'li jismoniy sezgi bilan bir qatorda emotsional holatda «*I feel happy*» jumlasini misol qilib olsak bo'ladi shu holatda intuitiv holatni ifodalash *uchun «I feel that something is wrong», «Do you feel the importance of this issue?»* jumlasida hissiy sezgi abstrak hissiy tajriba bilan bog'langanini ko'rishimiz mumkin. Holat fe'llariga uzviy ravishda «Hear» holat fe'lining semantik kengayishini ham ko'rib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi. «Hear» fe'li eshitishdan tashqari, ma'lumotni qabul qilish ma'nosida «*Have you heard the news?*» jumlasini namuna sifatida bersak bo'ladi, bundan tashqari «*I hear you*» va «*We need leaders who hear the people*» jumlalaridan «tushunish» ma'nosini talqin qilish uchun foydalanishimiz mumkin. Yuqorida keltirib o'tilgan namunalarda eshitish kommunikativ idrok bilan uzviy uyg'unlashganini anglashimiz mumkin.

Holat fe'llarining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, ular argument tuzilishga ham egadir. Ingliz tilida bu fe'llar ko'pincha qat'iy sintaktik strukturaga ega bo'lib, subyekt va obyekt munosabatlari aniq belgilangan bo'ladi va ushbu misollar bunga dalil bo'la oladi: «*She fears darkness*» yoki «*He believes the statement*».

Kognitiv lingvistika tilni inson ongining mahsuli sifatida talqin qiladi. Holat fe'llari esa o'z navbatida insonning sezgi tajribasi asosida shakllangan konseptual tizimni aks ettiradi. Buni chuqurroq talqin qiladigan bo'lsak, holat fe'llaridagi metaforik kengayish konseptual metaforalar orqali namoyon bo'ladi: Quyidagi jadvalda esa holat fe'llarining o'z ma'nosini hamda metaforik ma'nolarining solishtirilgan shakllarini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

Holat fe'li	Lug'aviy ma'no	Metaforik ma'no
see	ko'rmoq	Tushunmoq
hear	eshitmoq	Anglamoq
feel	sezmoq	emotsional holat
taste	tatib ko'rmoq	tajriba orttirmoq
smell	hid sezmoq	sezib qolmoq

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan «taste» fe'lining metaforik kengayishini quyidagi jumlalar orqali ko'rishimiz mumkin. Masalan, «*The victory tasted sweet*», «*The young scientist tasted success with her first publication*» jumlalarida «taste» metaforik birlik ma'nosida «muvaffaqiyat hissini» ifodalaydi. Xuddi shunday holat «*After years of hard work, she finally tasted success*» gapida ham kuzatilad, ya'ni «muvaffaqiyat hissini ta'tib ko'rdi» ma'nosini beradi.

Kognitiv lingvistikada keng tushunchani o'zida qamrab olgan metaforik birlik nazariyasiga ko'ra, inson tafakkuri tana tajribasi bilan chambarchas bog'liq. Sezgi organlari orqali olingan tajriba esa o'z navbatida fikrlashning asosini tashkil qiladi desak yangilishmaymiz. Holat fe'llarining metaforik ma'nolari ham aynan insonning jismoniy tajribasi orqali yuzaga chiqadi.

Diskursiv va pragmatik xususiyatlar. Holat fe'llari

[1] Ronald Langacker. Cognitive Grammar. Oxford University Press, 2008.
[2] George Lakoff & Mark Johnson. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.

(see, hear, feel, notice, sense, perceive va boshqalar) ingliz tilida nafaqat sezgi va idrok jarayonlarini ifodalovchi leksik birliklar hisoblanadi, balki muhim pragmatik vositalar sifatida ham nutqda faol qo'llanilishini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (2-jadval):

	Fe'l	Gap	Pragmatik ma'no
1	see	I can see why you are upset.	Sababni anglash, hamdardlik bildirish
2	hear	I hear what you're saying, but I disagree.	Fikrni tan olish, ammo qarshi pozitsiyani bildirish
3	feel	I feel your frustration.	Hamdardlik, hissiy tushunish
4	notice	I noticed you seemed uncomfortable during the meeting.	Psixologik holatni anglash
5	sense	I sensed some hesitation in his response.	Bilvosita xulosa chiqarish
6	perceive	The proposal was perceived as a positive step.	Talqin qilish, baholash

Pragmalingvistika nuqtai nazaridan til birliklarining vazifasi faqat axborot uzatish bilan chegaralanmaydi. Ular muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini tartibga solish bilan bir qatorda, kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish va nutqning ta'sirchanligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli holat fe'llari ko'pincha o'zining birlamchi semantik ma'nosidan ham nutqtning ba'zi vaziyatlarida chekingan holda, so'zlovchining subyektiv bahosi, hissiy munosabati yoki kommunikativ strategiyasini ifodalovchi pragmatik vositaga aylanadi[1].

Nazariy jihatdan bu holat pragmalingvistikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan nutqiy niyat va bilvosita nutq aktlari nazariyalari bilan izohlanadi. J.Searle va J. L. Austin tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasiga ko'ra, so'zlovchi ayrim fikrlarni bevosita emas, balki yumshoqroq va ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda ifodalashga intiladi[2]. Bunday vaziyatlarda holat fe'llari muloqotdagi kategoriklikni kamaytirib, fikrning muloyimroq qabul qilinishiga yordam beradi va so'zlovchining qay darajada til birliklaridan ustamon foydalanishini ko'rsatib beradi. Yanada aniqroq tushunchaga ega bo'lish uchun «I feel that this decision is unfair» jumlasini ko'rib chiqsak bo'ladi. Ushbu gapda «feel» fe'li so'zlovchining shaxsiy munosabatini bildirib, fikrni mutlaq haqiqat sifatida emas, balki individual qarash sifatida taqdim etgan. Natijada tinglovchi fikrni keskin tanqid sifatida emas, balki subyektiv baho sifatida qabul qiladi. Bu esa nutqda xushmuomalalik strategiyasini yuzaga keltiradi. Shuningdek, holat fe'llari emotsional yaqinlik va o'zgalar hissini tushunish vazifasini ham bajaradi.

Endilikda yana bir misol tariqasida *«I see your concern»* jumlasini ko'rib chiqsak, bu yerda «see» fe'li fizik tomondan ko'rishni emas, balki «tushunmoq», «anglamoq» ma'nosini ifodalab kelyapti. So'zlovchi suhbatdoshning his-tuyg'ulari va tashvishlarini tushunayotganini ko'rsatadi. Natijada suhbatdoshlarga muloqotda o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini shakllantirishga yordam beradi. Kognitiv-pragmatik yondashuvga ko'ra, holat fe'llarining bunday qo'llanilishi metaforik konseptualizatsiya natijasidir.

Xususan, «tushunish - ko'rishdir» (understanding is seeing) va «bilish - idrok etishdir» (knowing is perceiving) kabi konseptual metaforalar ingliz tilida keng tarqalgan. Shu sababli «see» fe'li «ko'rmoq» ma'nosidan «tushunmoq», «feel» esa «his qilmoq» ma'nosidan «fikr bildirmoq» yoki «munosabat ko'rsatmoq» ma'nolarida metaforik kengayishni yuzaga keltirgan.

Demak, holat fe'llari ingliz tilidagi kommunikativ diskursda muhim pragmatik vazifalarni bajaribgina qolmay, ular so'zlovchiga fikrni yumshoqroq ifodalash, emotsional ta'sirni kuchaytirish, suhbatdosh bilan empatik munosabat o'rnatish hamda subyektiv bahoni bildirish imkonini beradi. Shu jihatdan holat fe'llari nutqning pragmatik samaradorligini oshiruvchi va kommunikativ maqsadlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlovchi muhim lisoniy vositalardan biri hisoblanadi[3]. Holat fe'llari ingliz tilidagi kommunikativ diskursda pragmatik vazifani bajarganda, ular suhbatdosh fikrini yumshatish *«I feel that this decision is unfair»*, emotsional ta'sirni kuchaytirish *«I see what you mean»*, subyektiv munosabatni ifodalash uchun *«I see your concern»* qo'llaniladi. Ushbu yuqorida ta'kidlangan birliklar nutqning pragmatik samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi holat fe'llari nafaqat fizik sezgini, balki inson

[1] Raymond W. Gibbs Jr.. (2006). Embodiment and Cognitive Science. Cambridge: Cambridge University Press.
[2] Stephen C. Levinson. (1983). Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press.
[3] Stephen C. Levinson. (1983). Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press.

tafakkurini, hissiyotini va abstrakt konseptlarni ham ifodalashga xizmat qiladi. Holat fe'llarining metaforik kengayishi insonning konseptual dunyoqarashi bilan bevosita bog'lanadi. Bu fe'llar kognitiv jarayonlarni, emotsional holatlarni, kommunikativ pragmatikani va konseptual metaforalarni ifodalovchi muhim lingvistik birliklardir. Shu o'rinda tadqiqotda ingliz tilida mavjud hissiy qabul qilishni ifodalovchi holat fe'llarining metaforik kengayishi kognitiv-semantik va pragmalingvistik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, see, hear, feel, smell, taste kabi holat fe'llari dastlab insonning sezgi organlari orqali amalga oshadigan fizik idrok jarayonlarini ifodalagan bo'lsa-da, til taraqqiyoti davomida ularning semantik maydoni sezilarli darajada kengaygan va ular abstrakt tafakkur, hissiy tajriba, bilim olish hamda kommunikativ munosabatlarni ifodalovchi muhim vositalarga aylanib ulgurgan.

Tahlillar natijasida holat fe'llarining metaforik kengayishi tasodifiy hodisa emasligini, balki inson tafakkurining konseptual tuzilishi bilan uzviy bog'liq ekanligini aniqlandik. Xususan, «tushunish bu ko'rishdir», «bilish bu eshitishdir», «hissiyot bu his qilishdir» kabi konseptual metaforalar ingliz tili foydalanuvchilarining olamni idrok etish va kategoriyalash usullarini aks ettishga xizmat qiladi. Bu esa insonning jismoniy tajribasi yordamida va sezgi faoliyatini faollashtirish orqali abstrakt tushunchalarni anglash uchun asosiy manba ekanligini o'rganib chiqdik. Tadqiqot davomida holat fe'llarining metaforik ma'nolari kognitiv lingvistikaning voqealik tamoyili bilan ham izohlandi. Ya'ni insonning sezgi organlari orqali olgan tajribasi keyinchalik tafakkur jarayonida murakkab abstrakt tushunchalarni shakllantirish va ifodalash uchun konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan holat fe'llari nafaqat lingvistik birlik, balki inson ongida bilim va tajribani tashkil etuvchi konseptual mexanizmlarning tildagi ifodasi sifatida namoyon bo'lishini misollar orqali ko'rib chiqdik. Shuningdek, maqolada holat fe'llarining pragmatik imkoniyatlari ham atroflicha yoritib berildi. Tadqiqot natijalari ushbu fe'llarning ingliz tilidagi kommunikativ diskursda muhim pragmatik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Ular so'zlovchining fikrini yumshoqroq ifodalash, subyektiv munosabatni bildirish, emotsional ta'sir kuchini oshirish, suhbatdosh bilan empatik munosabat o'rnatish va kommunikativ hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi asoslab berildi. Natijada holat fe'llari muloqot samaradorligini ta'minlovchi muhim pragmatik vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Bundan tashqari, tadqiqot holat fe'llarining semantik va funksional xususiyatlari ingliz tilining lingvokognitiv manzarasini shakllantirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Ularning metaforik kengayishi orqali til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar namoyon bo'lishi 'rganib chiqildi. Har bir metaforik qo'llanish ingliz tili foydalanuvchilarining dunyo haqidagi konseptual tasavvurlari, madaniy qadriyatlari va kommunikativ strategiyalarini aks ettirishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundaki, ular holat fe'llari kategoriyasining semantik va kognitiv tabiatini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qildi hamda kognitiv lingvistika, semantika, pragmalingvistika va lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishlaridagi mavjud ilmiy qarashlar yanada boyitildi. Amaliy jihatdan esa mazkur natijalar ingliz tilini o'qitish metodikasi, tarjimashunoslik, diskurs tahlili hamda madaniyatlararo kommunikatsiya tadqiqotlarida samarali qo'llanilishi mumkin.

Umuman olganda, ingliz tilidagi hissiy qabul qilish holat fe'llarining metaforik kengayishi insonning dunyoni sezish, anglash va konseptuallashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab lingvokognitiv hodisa hisoblanadi. Ushbu hodisani o'rganish tilning nafaqat kommunikativ vosita, balki inson tafakkuri va madaniy tajribasining muhim aks ettiruvchi vositasi ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Resume. Maqolada ingliz tilida mavjud ma'lum bir holat fe'llarining metaforik kengayish asoslari, ularning nafaqat kognitiv-lingvistik tahlili balki pragmatik asoslari ham ham atroflicha tadbiq qilingan.

Resume. The article comprehensively investigates the underlying mechanisms of the metaphorical extension of specific English stative verbs, providing an in-depth analysis of their cognitive-linguistic characteristics as well as their pragmatic foundations in discourse.

Резюме. В статье проводится комплексный анализ механизмов метафорического расширения семантики отдельных английских глаголов состояния, раскрываются их когнитивно-лингвистические особенности и прагматические основы функционирования в дискурсе.